

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixologiyistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



UO'K: 371.62

1960-1980 YILLARDA O'ZBEKISTON HUNAR-TEXNIKA TA'LIM TIZIMIDA O'ZGARISHLAR**ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА В 1960-1980 ГГ.****CHANGES IN THE SYSTEM OF VOCATIONAL AND TECHNICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN IN 1960-1980****Ro'ziqulov Sherzodbek Maribjonovich**
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada XX asrning 60-80 yillarida O'zbekistonda hunar - texnika ta'limi tizimida yuz bergan o'zgarishlar, ta'lim sohasiga oid sovet hokimiyati chiqargan qonun va qarorlar, ularni hayotga tadbiq etishdagi muammolar, hunar - texnika ta'limi sohasida erishilgan yutuqlar hamda sohada vujudga kelgan muammolarni yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, ushbu maqola yangi tarixiy manbalar, arxiv materiallari, esdaliklar, maktublar, vaqtli matbuot materiallari, narativ manbalar asosida yoritilgan bo'lib, ko'rilayotgan davrda O'zbekiston ta'lim tizimi xodimlarining fidokorona mehnati, ta'lim tizimida ro'y bergan ijobiy salbiy jihatlarga xolisona baho berishda, tarixiy haqiqatni tiklashda, yoshlarni Vatanga sadoqat, o'tmishdoshlariga cheksiz xurmat ruhida tarbiyalashda, o'zlikni anglashda, o'tmish saboqlaridan tegishli xulosa chiqarishga yordam beradi.

Аннотация

В статье попытались осветить изменения, произошедшие в системе профессионально-технического образования Узбекистана в 60-80-е годы XX века, законы и постановления советской власти в области образования, проблемы в их реализации, достижения в области профессионально-технического образования и проблемы, возникшие в этой сфере. Также в данной статье автор рассматривает основы новых исторических источников, архивных материалов, мемуаров, писем, материалов современной прессы, нарративных источников, самоотверженной работы работников системы образования Узбекистана в рассматриваемый период, объективной оценки положительных и негативные моменты, произошедшие в системе образования, восстановление исторической правды, поощрение молодежи. Верность Родине, воспитание в духе бесконечного уважения к предшественникам, самосознание, помогает сделать соответствующие выводы из уроков прошлого.

Abstract

The article tried to highlight the changes that occurred in the system of vocational education of Uzbekistan in the 60-80s of the twentieth century, the laws and regulations of the Soviet government in the field of education, problems in their implementation, achievements in the field of vocational education and problems emerged in this area. Also in this article, the author examines the basis of new historical sources, archival materials, memoirs, letters, materials of the modern press, narrative sources, the dedicated work of workers in the education system of Uzbekistan during the period under review, an objective assessment of the positive and negative aspects that occurred in the education system, the restoration of historical truth, encouraging youth. Loyalty to the Motherland, education in the spirit of endless respect for predecessors, self-awareness, helps to draw appropriate conclusions from the lessons of the past.

Kalit so'zlar: ta'lim sohasi, hunar-texnika ta'limi, kasb-hunar bilim yurtlari, texnikum, pedagogika bilim yurtlari, kommunistik partiya, siyosat, kommunistik mafkura, qarorlar, qonun.

Ключевые слова: область образования, профессионально-техническое образование, профессиональные училища, техникумы, педагогические училища, коммунистическая партия, политика, коммунистическая идеология, решения, право.

Key words: field of education, vocational education, vocational schools, technical schools, teacher training schools, communist party, politics, communist ideology, decisions, law.

KIRISH

O'zbekistonda bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, yoshlarni o'rta maktab va undan keyingi ta'lim bosqichlarida biror kasb-hunarni puxta egallashiga erishish maqsadida

TARIX

uzluksiz ta'lim sohasini rivojlantirish, ta'lim tizimda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda shu maqsad yo'lida bugungi kunga qadar kasb-hunar ta'lim tizimini takomillashtirish, modernizatsiyalash va mazmunini yangilash maqsadida amalga oshirilgan islohatlar natijasida ancha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu tizimni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratildi va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sovet hukumati davrida urishdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini qayta tiklash jarayonida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj, qolaversa, sanoat va xalq xo'jaligining turli sohalarida mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab natijasi o'laroq butun sobiq Ittifoqda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham kasb-hunarga ixtisoslashgan bilim yurtlarini ko'payishiga olib keldi.

1961-yilda bo'lib o'tgan KPSS XXII syezdida belgilangan vazifalar orasida, mamalakata yetti yillik reja topshiriqlarni bajarish asnosida, hunar-texnika ta'limi tizimini rivojlantirish sohasidagi tadbirlar ham belgilangan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

O'zbekistonda ta'lim tizimi va uning Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi ahvoriga doir bugunga qadar ko'plab monografiya, risola, maqola, hujjatlar to'plami va xotira kitoblari chop etilgan. Mavzuga oid sovet davrida yaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'proq kommunistik mafkura izmida yaratilgan bo'lib, ularda sovet davri ta'lim tizimining afzalliklari, kommunistik partiya tomonidan ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalari, pedagog kadrlarni tayyorlash sohasidagi o'zgarishlarga ijobiy jihatdan baho berish bilan birgalikda hunar-texnika ta'limiga ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, I.K.Qodirov, A.Ismoilov, Q.Ergashev, D.Bobojonova, M.Mirsaitov, Sh.N.Ulmasov S.Sodiqov., X.Zufarov, N.Raxmonov, R.A.Mavlonova, L.Maksakova kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston SSRda sovet hokimiyati yillarida ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar tarixini atroflicha bayon etishga harakat qilganlar.

Bu davrda ta'lim tizimida amalga oshirilgan asosiy islohatlardan biri sakkiz yillik umumta'lim maktablari bazasida hunar-texnika o'quv yurtlarining yagona tipi - shahar va qishloq hunar-texnika bilim yurtlari tashkil etish qonunlashtirildi. Amaldagi fabrika-zavod o'quv maktablari o'qish muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan kunduzgi va kechki shahar hunar-texnika bilim yurtlari va o'quv muddati bir yildan ikki yilgacha bo'lgan qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga aylantirilish rejasi ishlab chiqildi. O'zbekiston SSRda 1958-1965-yillar davomida 4 ming o'ringa ega bo'lgan (boshqa ministrliklar va boshqarmalardan qabul qilingan o'quv yurtlari bu hisobga kirmaydi) 23 ta yangi hunar-texnika bilim yurti tashkil etildi [1.79].

NATIJA VA MUHOKAMA

Hunar-texnika ta'limini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, xalq xo'jaligini barcha sohalariga malakali ishchi kadrlarni tayyorlash edi. Xususan, bu davrda qurilish sohasi jadal sur'atlarda rivojlanganligi, ya'ni, yirik sanoat korxonalari, turar joylar va boshqa maishiy obyektlarni qurilishining ko'payganligi uchun, bu sohada kadrlar tayyorlovchi bir qancha bilim yurtlar ochilishiga olib keldi. 1959-yil Chirchiqda, 1960-yil Nukusda, 1965-yil Qarshi shahrida quruvchi kadrlar tayyorlovchi hunar-texnika bilim yurtlari ish boshladi. Bundan tashqari, ko'rilayotgan davrda Navoiyda 200 o'ringa ega bo'lgan kimyo sanoati, Xorazm, Sirdaryo, Surxandaryo Qashqadaryo oblastlarida qishloq xo'jaligi uchun mexanizatorlar tayyorlovchi hunar-texnika bilim yurtlari tashkil etildi.

O'zbekiston SSRda XX asrning 60-yillar o'rtalariga kelib hunar-texnika ta'lim tizimida ma'lum o'zgarishlar amalga oshirildi. 1959-yil 21-yanvardagi hukumat qaroriga ko'ra, 1962-yilda O'zbekiston hunar-texnika ta'limi davlat qo'mitasi tashkil etildi [2.29]. Shundan so'ng respublikada mavjud bo'lgan kasb-hunar bilim yurtlari shahar texnika bilim yurtlari (GPTU) va qishloq texnika bilim yurtlari (SPTU) ga o'zgartirilgan.

Respublikada o'rta maxsus bilim yurtlarini soni ortib borishi natijasida ularning soni 1960-yilda 75 ta, 1963-1964-o'quv yilida 86 taga yetgan. Jumladan, 23 ta sanoat va qurilish, 4 ta transport va aloqa, 28 ta qishloq xo'jaligi, 8 ta iqtisodiyot va huquq, 11 ta sog'liqni saqlash, 1 ta jismoniy tarbiya va sport, 10 ta san'at va kinomatografiya, 11 ta maorif sohasi uchun ixtisoslashgan o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 79312 nafar o'quvchi o'qigan [3.72].

1960-1970-yillarda hunar - texnika bilim yurtlarini moddiy-o'quv bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1960-yil 21-oktyabrdagi

“O‘zbekiston SSR hunar-texnika bilim yurtlarida va ishlab chiqarish korxonalarida malakali ishchi kadrlarni tayyorlashni yanada rivojlantirish va yaxshilash to‘g‘risida” gi hamda 1963-yil 28-iyundagi “Hunar-texnika ta‘limini maktab to‘g‘risidagi Qonuni asosida qayta tashkil etish va yanada rivojlantirish to‘g‘risida” gi qarorlari katta rol o‘ynadi [1.83]. Moddiy-o‘quv bazasini mustahkamlanish yo‘lidagi harakatlar o‘quvchilarda ishlab chiqarish ko‘nikmalarini, ayniqsa, dastlabki professional ko‘nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar amaliy bilimlarni dastlab o‘quv ustaxonalarida oladi, olingan bilim va ko‘nikmalar ularning malaka darajasini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan davrda respublika xalq xo‘jaligini ayrim sohalariidagi faoliyatni yaxshilash, ishlar samaradorligini oshirish va rivojlantirish uchun professional texnika o‘quv yurtlarini salmog‘ini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligini mehanizatsiyalash, qurilish va transport-aloqa sohasiga malakali kadrlar tayyorlashda bu ta‘lim muassasalarni xizmati katta bo‘ldi. Respublikada 1960-yillarda 80 ta professional texnika o‘quv yurti mavjud bo‘lib, ularda 22 ming nafargacha talabalar tahsil olgan edi. Keyingi yillarda yangi bu turdagi ta‘lim muassalari tashkil etilib, ularning soni ortib bordi. Xususan, 1975-yilda O‘zbekiston SSR Oliy ta‘lim vazirligi tizimida Angren rejalashtirish - iqtisodiyot, Kattaqo‘rg‘on rejalashtirish-iqtisodiyot, Toshkent kechki avtomobilsozlik va Nukus aloqa texnikumlari tashkil etilgan edi[4.42].

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1974-yil 14-martdagi “Mehnatkash va qishloq yoshlarini tarbiyalovchi umumiy o‘rta ta‘lim, kechki ta‘limini holati to‘g‘risida”gi Farmonining, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1974-yil 29-martdagi 21-son qarorini, Oliy o‘quv yurtlari ministrining 1974-yil 14-maydagi 276-sonli buyrug‘larini ijrosini ta‘minlash maqsadida o‘quv yurtlarida tashkil etilgan kechki va sirtqi ta‘lim shakllarida mutaxassislar tayyorlashda ma‘lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Xususan, O‘zbekiston SSRda yangi tashkil etilgan texnikumlarning 27 ta kechki bo‘limlarida 42 ta mutaxassis, 28 ta sirtqi bo‘limlarida 41 ta mutaxassislikda jami 26086 nafar talabalar o‘qitildi. Keyingi yillarda Toshkent politexnika, Urganch qurilish, Marg‘ilon xo‘jalik va rejalashtirish, Yangiyo‘l oziq-ovqat, Bekobod sanoat texnikumlari yangi moddiy-texnik baza asosida ochildi[5.60-61].

Ko‘rilayotgan davrda Respublikadagi hunar-texnika bilim yurtlari sanoat va xalq xo‘jaligining turli sohalariiga tayyorlangan malakali ishchilarning beshdan bir qismini tayyorladi. Bu davrda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab zavod - fabrikalar, qurilish sohasi va qishloq xo‘jaligi sohalariidagi ishlar salmog‘i kengayganligini, hisobga olib yoshlarni malakali ishchi kadr sifatida tayyorlovchi bilim yurtlarini soni ko‘paytirishga jiddiy e‘tibor qaratilmadi. Ayniqsa, texnika taraqqiyoti natijasida turli sohalarga kirib kelgan zamonaviy kasblar yoki mutaxassislar tayyorlash masalasida ortda qolindi. Tizimda asosan traktorchi - mashinist, g‘isht teruvchi, bo‘yoqchi, sartarosh, tikuvchi, to‘quvchi, slesar, poyafzal ustasi singari kasblar ko‘proq o‘rgatildi[6.148].

To‘g‘ri ko‘rilayotgan davrda O‘zbekistonda hunar-texnika ta‘limini rovojalantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Biroq, bu sohada amalga oshirilgan ishlarda sifatga emas songa e‘tibor berildi. Masalan, yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan qurilish sohasidagi bilim yurtlari yetarli miqdorda sifatli kadrlar tayyorlashga qodir bo‘lmadi. Respublikadagi qurilish tashkilotlarining talab va ehtiyojlari, soha mutaxassislariga bo‘lgan talabi qondirilmadi. Natijada quruvchilik kasbiga o‘qitish vaqtincha qisqartirildi. Shuningdek, shahar hunar-texnika bilim yurtlariga nisbatan, qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga jiddiy e‘tibor qaratilmaganligi tufayli ulardan to‘laqonli foydalanilmadi. Qishloq xo‘jaligi mexanizatorlari tayyorlash soni va sifatini yaxshilash uchun katta zahiralarga ega bo‘lgani holda ulardan samarali foydalanilmadi. Umumiy olganda, ta‘lim jarayonini, amaliyot bilan bog‘lash, korxonalar bilan uzviy aloqada tashkil etishda ham ayrim muammolar mavjud edi.

1980-yillarga kelib ta‘lim jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘lash borasida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrda malakali ishchilarga bo‘lgan qo‘shimcha talab hunar - texnika ta‘lim tizimi bitiruvchilari hisobidan 70-80 foiz qondirildi. Ularning 30 foizi bilim yurtlarda, 70 foizi bevosita ishlab chiqarish jarayonida tayyorlandi. Shuning uchun hunar - texnika ta‘lim tizimi oldiga bilim yurtlarida bitiruvchilar salmog‘ini 40 - 45 foizga yekazish vazifasi qo‘yilgan edi[7.11-12].

Shu bilan birga, bu davrda ham hunar - texnika bilim yurtlari va korxonalar o‘rtasida o‘zaro aloqalar talab qilingan darajada emasligini ko‘rsatdi. Buning asosiy sababi, o‘zaro aloqalar to‘g‘risida muhim qoida ishlab chiqilmaganligi, xo‘jalik hisobidagi munosabatlarga o‘tilmaganligi, ayniqsa, rejalashtirishdagi ayrim kamchiliklar va kadrlar sifatiga jiddiy e‘tibor qaratilmaganligida edi.

TARIX

Sovet xukumati barcha sohalar kabi hunar - texnika ta'limi tizimida mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlarni tayyorlash masalasini keyingi o'ringa qo'ydi. Shuning uchun, xalq xo'jaligida bir qator muhim bo'lgan mashinasozlik, elektron - hisoblash, avtomatlashgan korxonalar va boshqa turdagi ishlab chiqarish sohalar malakali tub aholi vakillaridan iborat ishchi kadrlariga muhtoj edi. Tub millat vakillaridan ishchi kadrlar tayyorlash ishlariga uncha e'tibor berilmadi. Masalan, 1970-yillarning oxirlariga kelib O'zbekistondagi hunar - texnika bilim yurtlarida har 10 ming kishidan 69 ta o'zbek ishchisi tayyorlangan bo'lsa, Rossiyada xuddi shuncha aholidan 109 ta rus ishchisi tayyorlangan edi[6.149].

Hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilar ongiga ta'lim jarayonida kommunistik mafkurani singdirish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga ularda ma'naviy va moddiy siyosiy tushinchalar tizimini shakllantirish jarayonida bo'ysinuvchi, itoatgo'ylik qonuniyatlarini singdirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Hunar-texnika ta'lim tizimida ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va halq xo'jaliging boshqa sohalariga malakali ishchi kadrlarning asosiy qismi tayyorlanganligi hisobga olib, ushbu bilim yurtlari o'quvchilari dunyoqarashiga ko'proq kommunistik mafkura va dunyoqarashni shakllantirish masalasiga birinchi darajada ahamiyat qaratildi[8.137].

XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillar boshlariga kelib butun SSSRning jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va ijtimoiy sohada bajarilayotgan ishlar zaiflashdi. Natijada bu davrdagi iqtisodiyotdagi turg'unlik, ma'naviy-madaniy sohadagi jiddiy kamchiliklar ta'lim tizimi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Kasb-hunar ta'limi tizimida ma'muriy buruqbozlikning kuchayishi, ta'lim tizimni taraqqiy etishiga to'sqinlik qildi. Shuningdek, mutaxassislar tayyorlashdagi sifat ko'rsatkichlariga e'tibor berilmadi.

1980 - yillarning o'rtalariga kelib, respublika ta'lim tizimida o'quvchi - yoshlarga bilim va tarbiya berish jarayonida qarama - qarshiliklar kuchaydi. O'quvchilar ma'naviy dunyosini qashshoqlantirishga, hayotdan uzoqlashtirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya yo'nalishi ta'lim muassalar faoliyatiga salbiy ta'sir eta boshladi. Undagi noxush holatlar yanada kuchaydi. Bu davrga kelib, nazariya bilan amaliyotning, tarbiyaviy ishlar bilan haqiqiy imkoniyatlarning uzoqligi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini deyarli yo'qqa chiqardi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko'rilayotgan davrda O'zbekiston SSRda xalq xo'jaligining barcha sohalarini talablaridan kelib chiqib malakali kadrlar bilan ta'minlovchi hunar - texnika ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilindi. 1960-yillar butun SSSRda bo'lganidek O'zbekiston SSRda ham "Rivojlangan sotsializm" bosqichi deb e'lon qilinganligi va unga ko'ra mamlakatda ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy - ma'rifiy sohalarda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi. Lekin, amalda rejalashtirilgan ishlar sifatli va samarali tashkil etilmadi. Bu davrda ham ma'muriy buyruqbozlik siyosiyati avj oldi, sifat emas, son ketidan quvish, kadrlar tayyorlash siyosatida ham ustivor yo'nalish bo'lib qolgandi. Sovet hukumatining ta'limga munosabati, ta'lim-tarbiya jarayonining o'ta darajada mafkuralashtirilishi milliy qadriyatlarga e'tibor bermaslik, kadrlarning jamiyatdagi o'rniga nisbatan salbiy ta'sirini o'tkazgan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исмоилов А. Ўзбекистонда ҳунар-техника таълими. –Тошкент: Ўзбекистон, 1972. 136 бет
2. Эргашев.Қ. Ўзбекистонда халқ таълимини ривожланиш тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1998 й.
3. Қодиров Э. Совет Ўзбекистони халқ маорифи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1964.
4. O'zMA. Fond-R-94, 1-ro'yxat, 3103-ish
5. O'zMA. Fond-2653, 1-ro'yxat, 3105-ish
6. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. –Тошкент: Шарқ, 1999. 148 б.
7. Мирсаатов М. Ўзбекистонда ҳунар-техника таълими системасининг ривожлантириш проблемалари. – Тошкент: 1985.28 бет
8. Василевская А. Ҳунар-техника билим юртлари ўқувчиларида таълим жараёнида коммунистик муносабатни шакллантириш. –Ташкент: Ўқитувчи, 1982. 137 бет